OILAVIY MUNOSABATLAR, OILAVIY NIZOLAR, AJRIMLARNING BOLALAR RUHIYATIGA TA’SIRI

Xolnazarova Matluba Xolbo‘taevna, GulDU proffessori
Xamrakulova Kamola G‘ayratovna, GulDU doktoranti

Annotatsiya. Maqolada Oilaviy munosabatlar, oilaviy nizolar, ajrimlar va ularning oqibatlari mavzusida ko‘plab olimlarning ilmiy izlanishlari, o‘tkazgan ilmiy tadqiqotlari yoritib berilgan. O‘tkazilgan so‘rovnomada ishtirok etganlaming fikriga ko‘ra, baxtli oila tuzishning muhim sharti o‘zaro muhabbat (52,6 %) hamda er-xotinning o‘rtasidagi o‘zaro ishonchdir (48,9 %). Shuningdek, so‘rovda ishtirok etganlaming har uchinchisi (34,9 %) fikriga ko‘ra, mustahkam oila – bu hayotdagi qoniqishdir. 27,7 % yurtdoshlarimiz mustahkam oila deganda, avvalo, oilada farzandlarning mavjudligini tushunadilar. Shunisi ham e’tiborga molikki, fuqarolarimizning ko‘pchiligi nikohga kirishning bosh sababi sifatida oila qurish, farzand ko‘rish (70,6%), avloddavomiyligini ta’minlash istagi (48,l %)ni ko‘rsatganlar.

Kalit so‘zlar: oilaviy nizolar, ajrimlar, yosh oila, o‘rtacha yoshli oila, katta yoshli oila.

ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЙ, КОНФЛИКТОВ, РАЗДОРОВ НА ПСИХИКУ ДЕТЕЙ

Аннотация. В статье описаны научные изыскания и научные изыскания многих ученых на тему семейных отношений, семейных конфликтов, решений и их последствий. По мнению принявших участие в опросе, взаимная любовь (52,6%) и взаимное доверие между супругами (48,9%) являются важным условием создания счастливой семьи. Также, по мнению каждого третьего респондента (34,9%), крепкая семья – это удовлетворение в жизни. 27,7% наших соотечественников понимают наличие детей в семье, когда говорят о крепкой семье. Стоит также отметить, что основной причиной вступления в брак большинство наших граждан указали создание семьи, рождение детей (70,6%), стремление обеспечить преемственность поколений (48,1%).

Ключевые слова: семейные споры, разводы, Молодая семья, семья среднего возраста, семья пожилых людей.

THE INFLUENCE OF FAMILY RELATIONSHIPS, CONFLICTS, DISCORD ON THE PSYCHE OF CHILDREN

Abstract. The article describes the scientific research and scientific research of many scientists on the topic of family relations, family conflicts, decisions and their consequences. According to those who took part in the survey, mutual love (52.6 %) and mutual trust between spouses (48.9 %) are an important condition for creating a happy family. Also, according to every third respondent (34.9 %), a strong family means satisfaction in life. 27.7 % of our compatriots understand the presence of children in the family when they talk about a strong family. It is also worth noting that the main reason for marriage was the creation of a family, the birth of children (70.6 %), the desire to ensure the continuity of generations (48.1 %), which the majority of our citizens indicated as the main reason for marriage.

Keywords: family disputes, divorces, young family, middle-aged family, elderly family.

Kirish. Oila – jamiyatning ajralmas bo‘lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo‘qki, u o‘zining rivojlanish tarixida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadryatlarini inobatga olmagan bo‘lsa. Har qanday istiqbol oila manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrining boshlanishi, barcha narsalarning boshlanishidir. Har bir inson o‘z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog‘laydi, ya’ni oilasining to‘kisligi, oila a’zolarining o‘z vazifalarini o‘z o‘rnida ado etishi, oila a’zolarining bir-birlariga nisbatan mehr – muruvvat, sevgi ila munosabatda bo‘lishiligini xohlaydi va orzu qiladi. Har bir inson, ayniqsa farzandlar oilasi bilan, ota-onasi bilan birgalikda o‘zini baxtli, erkin his etishadi. Qiynalgan chog‘ida uni suyab turadigan, uni qo‘llab-quvvatlaydigan mexribon, hamjihat oilasi bo‘lishini orzu qiladi. Bugungi kunda tabni xira qiladigan, oila a’zolarining ruhiy zo‘riqishiga olib keladigan, farzandlar rivojlanishiga, kamol topishiga, kelajagiga to‘sqinlik qilayotgan oilaviy nizolar, kelishmovchiliklar, oxir oqibat ajrimlarning ko‘payib borayotganligi tashvishlanarli holdir. Yoshlarimizning oila qurishga ham ruhan, ham ma’nan tayyor emasligi, kattalar tomonidan farzand tarbiyasidagi kemtikliklar, oilada to‘laqonli ota-ona modelining mavjud emasligi, yoshlarning kasbiy etuklikka ega bo‘lmasligi, qiyinchiliklarga nisbatan besabrlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat ko‘rsatishni bilmaslik, engil hayotga qiziqish oilalarning oxir-oqibat parokandalikka yuz tutishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ham barcha mamlakatlar uchun ajrim muammosini oldini olish doimo muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy munosabatlar mavzusi nafaqat yurtimizda, balki barcha rivojlangan mamlakatlarda ham dolzarb masala hisoblanadi. Oilaviy munosabatlar, oilaviy nizolar, ajrimlar va ularning oqibatlari mavzusida ko‘plab olimlar ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Oiladagi ajrimlar va muammolarni g‘arb psixolog olimlaridan E. G. Eydemiller, V. Yustinskiy, V. Satir, R. Bendler, D. Grinder, K. Vitaker, K. Rodjers kabilarni aytib o‘tishimiz mumkin.

Karl Vitaker oiladagi muammolarni o‘rganishda ya’ni oilaviy terapiyada istisnosiz ravishda oila a’zolari bilan birgalikda ish olib borish zarur, deb hisoblasa, E. G. Eydemiller va V. V. Yustiskiy ayrim hollarda vaziyat taqozosiga ko‘ra individual, yakkaxol uchrashuvlar tashkil etilishi mumkinligini ham ta’kidlaydilar. Ular yana shuni ta’kidlashadiki oilaviy muammolarni o‘rganishda psixologning nazariy mo‘ljalidan emas, har bir oilaning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanishi lozimligini aytib o‘tadi.

Oilada ota-onaning o‘rni, vazifasi bilan bir qatorda farzand tarbiyasi ham muhim masala. Bu borada sharq mutafakkirlarimizning asarlarida ham so‘z yuritilgan. Jumladan, buyuk allomalarimiz Al-Buxoriy, At-Termiziy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Sa’diy Sheroziy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulla Avloniy kabi ko‘plab donishmandlarimiz oilada ota-onaning obro‘si, farzand tarbiyasidagi mas’uliyatiga tegishli ilg‘or fikrlari avloddan-avlodga meros bo‘lib o‘tib kelmoqda.

Mamlakatimizning bir qator etakchi olimlari ham oilaviy munosabatlar psixologiyasi, oilaviyi munosabatlarda nizolar, oilaviy zo‘ravonliklar mavzusida samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borganlar, jumladan Davletshin, G‘ .B. Shoumarov, V. Karimova, E. G‘oziev, Z. Nishanova, B. Umarov, F. A. Akramova, G. Yadgarova, T. Narbayeva, E. N. Sattorov, N. A. Sog’inov, E. Sh. Usmonov, U. O. Kadirov, R. S. Samarov, M. Utepbergenov, G. Niyazmetova, F. Ro‘ziqulov, R. Dushanov Z. A. Rasulova, R. M. Abdullaeva, B. Aminov, A. T. G’afurov va boshqalarning tadqiqot ishlarida oila masalasi atroflicha o‘rganilgan.

Tadqiqotlarga ko‘ra oilalarni yosh jihatdan uch guruhga bo‘lib o‘rganish mumkin.

1. Yosh oila (23-30 yosh).
2. O‘rtacha yoshli oila (31-40 yosh).
3. Katta yoshli oila (41-50 yosh).

Yosh oilalarda ota-ona har tomonlama tajribasiz bo‘lishadi. Ammo bola asosan maktabgacha tarbiya muassasasiga va maktabning birinchi yoki ikkinchi sinfiga boradigan yoshda bo‘ladi.

O‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar natijasiga ko‘ra “iqtisod oila-milliy qadriyatlar” tizimiga oid dolzarb muammolar borligi ko‘rinadi. Jamoatchilik fikriga asosan ma’naviy qadriyatlaming moddiy qadriyatlarga nisbatan ustuvor baholanishiga sabab, oilaning va u asosida quriladigan jamiyatning ma’naviy jihatdan sog‘lom ekanligi va barqaror ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni saqlab qolayotganligini ko‘rsatuvchi muhim dalildir. Xususan, 36 so‘ralganlaming deyarli 45,5% iqtisodiy qiyinchiliklami vaqtinchalik, ma’naviy qadriyatlami abadiy deb hisoblasa, 27,5% i esa “moddiy boyliklar ma’naviy boyliklardan qadrliroq bo‘lishi mumkin emas”, deb hisoblashadi. Respondentlaming ko‘pchiligi (63,6 %), “moddiy jihatdan badavlat, ammo ma’naviy qashshoq” odamlami yoqtirmasliklarini ham aytganlar.

So‘rovnomada ishtirok etganlaming fikriga ko‘ra, baxtli oila tuzishning muhim sharti o‘zaro muhabbat (52,6 %) hamda er-xotinning o‘rtasidagi o‘zaro ishonchdir

(48,9 %). Shuningdek, so‘rovda ishtirok etganlaming har uchinchisi (34,9 %) fikriga ko‘ra, mustahkam oila - bu hayotdagi qoniqishdir. 27,7 % o‘zbekistonliklar mustahkam oila deganda, awalo, oilada farzandlarning mavjudligini tushunadilar. Shunisi ham e’tiborga molikki, fuqarolarimizning ko‘pchiligi nikohga kirishning bosh sababi sifatida oila qurish, farzand ko‘rish (70,6%), avlod davomiyligini ta’minlash istagi (48,l %)ni ko‘rsatganlar. Ushbu dalillar aynan farzand omili o‘zbek oilalarida mustahkamlikning bosh bo‘g‘ini sifatida baholanayotganligini ko‘rsatadi.

Ma’naviy-axloqiy tarbiyaning oila mustahkamligiga ta’siri masalasida ham jamoatchilik fikrida yuz berayotgan muhim tendensiyalami alohida ta’kidlab o‘tish mumkin. Oilada bolalaming ma’naviy-axloqiy tarbiyasi bilan kim shug‘ullanishi zamr? degan savolga ko‘pchilik ota va onani ko‘rsatganlar (72,1 %). Shunisi qiziqki, 2000-yildagi so‘rovda oilada «bosh tarbiyachi» sifatida onalar ko‘rsatilgan boisa, (10,2 %), 2003-yildagi so‘rovda bu ko‘rsatgich pasaygan (8,9 %), shu vaqtning o‘zida otaning roli 7,8 % dan 10,9 % ga, shuningdek, buvilar va buvalar roli 8,0% dan 12,1% ga oshganligini ko‘rish mumkin. Ma’lumki, farzandlami ota va ona birgalikda tarbiyalashi farzand tarbiyasiga har tomonlama ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Buni so‘rov natijalari ham tasdiqlaydi. «Qanday oilalarda me’naviy sog‘lom va har tomonlama rivojlangan farzandlar tarbiyalash 37 mumkin?» degan savolga ko‘pchilik, ya’ni 49,8 foizi ota va onaning birgalikdagi tarbiyasini ko‘rsatganlar. Shu bilan birga 15,3 foiz so‘rovnoma ishtirokchilari otaning, 12,3 foiz so‘rovnoma ishtirokchilari esa onaning farzand tarbiyasidagi muhim rolini ajratib ko‘rsatganligini R.Umirzakova o‘z tadqiqotlarida alohida ta’kidlab o‘tadi. So‘rov natijalariga ko‘ra, oilaning turlari va farzandlaming ma’naviy tarbiyasi o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjud. R.Umirzakova tomonidan «Qanday oilalarda ma’naviy sog‘lom, Vatanga sodiq farzandlar tarbiyalanadilar?» - mavzusida o‘tkazilgan tadqiqotiar natijasiga ko‘ra aniqlangan ma’lumotlarga asosan quyidagilar ma’lum. (Natijalar % hisobida) № Oilalar turlari Shahar Qishloq Jami

1. Mehnatsevar va halol oilalarda 46,9 54,3 50,7
2. Inoq va tinch oilalarda 37,7 40,0 38,9
3. Ma’naviy sog‘lom oilalarda 41,4 34,3 37,8
4. Ziyoli oilalarda 25,6 17,2 21,3
5. Ko‘p bolali oilalarda 3,2 4,5 3,9
6. Dindor oilalarda 4,3 2,4 3,3
7. Javob berishga qiynalaman 0,4 1,7 1,0

Oilada har xil ziddiyatlarning bo‘lmasligi yaxshi oilaning belgisi va aksincha. Ziddiyat, nifoq va kelishmovchiliklar qancha ko‘paysa, oila mustahkamligi shuncha darz ketadi. So‘ralganlaming 55,7 foizi o‘z oilalarida janjallar bo‘lmasligini ta’kidlashganlariga qaramay, ulaming yarmiga yaqini janjallar bo‘lib turishini aytib o‘tgan. Bu esa bola tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlab o‘tish joizdir. Sizga ma’lumki, oiladagi janjallar yo‘q joydan yuz bermaydi, ulaming ma’lum sabablari bor. So‘rovnomada ishtirok etganlaming javoblariga ko‘ra, oilalardagi janjal va keskin ziddiyatlar sabablari orasida moddiy qiyinchiliklar (48,5 %), oila a’zolarining o‘z majburiyatlarini bajarmasliklari (21,7 %), dunyoqarashning mos kelmasligi (17,9 %), bolalar tarbiyasiga oid fikrlaming mos

tushmasligi (16,75 %), o‘z fikrida qat’iy turib olish (15,5 %), shuningdek, narkomaniya va alkogolizm kabi omillar ustuvorlik qilishini bildirishgan. Oiladagi bunday nosog‘lom muhit o‘z-o‘zidan farzand tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Oilaning barcha yoki bir necha a’zolarining xohishlari, qiziqishlari, ehtiyojlari sohasida doimo to‘qnashuvlar, kelishmovchiliklar mavjud bo‘lgan oilalar nizoli oilalar deb ataladi. Bunday oilalarda er-xotin yoki oila a’zolari bir-biriga nisbatan cheksiz hurmatsizlik, shuningdek, davomli qoniqarsiz emotsional holatni his qiladilar. Nizo - bunday oilaning surunkali holatidir. Lekin ayrim nisbiy xulosalar, mulohazalar asosida maxsus adabiyotlarda oilaviy nizo - janjallaming sabablarini aniqlash va oldini olish masalalarini ijobiy hal qilishda birinchi navbatda ulaming kimlar o‘rtasida sodir bo‘layotganligiga qarab R.Umirzakova quyidagi asosiy turlarga ajratganlar:

- er-xotin o‘rtasidagi nizolar;
- qaynona-kelin o‘rtasidagi nizolar;
- qaynona-kuyov o‘rtasidagi nizolar;
- ovsinlar o‘rtasidagi nizolar;
- ota-onalar va farzandlar o‘rtasidagi nizolar va h.k.

O‘tkazilgan tadqiqotlardan olingan ma’lumotlar asosida shuni xulosa qilishimiz mumkinki, er-xotinlar o‘rtasidagi nizolar asosan ulaming ehtiyojlari qondirilmaganligidan kelib chiqadi. Er-xotin o‘rtasidagi nizolarining aksariyati:

- er-xotinlaming psixoseksual jihatdan mos kelmasligi;
- o‘z «Men»ining ahamiyatliligini anglashga nikoh jufti bilan qadr-qimmatga, e’tiborga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi;
- ijobiy emotsiyalarga; g‘amxo‘rlik, erkalash, e’tibor va o‘zaro tushunishga bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi;
- nikoh jufitidan binning o‘z ehtiyojlarini qondirishga juda ko‘p e’tibori (alkogol, giyohvand moddalar, faqat o‘zi uchun moddiy mablag‘larni sarflashi va boshqalar);
- uy-ro‘zg‘or ishlari, farzandlar tarbiyasi, ota-onaga bo‘lgan e’tiborda o‘zaro yordam, o‘zaro hamkorlikka bo‘lgan ehtiyojning qondirilmasligi;
- dam olish, qiziqishlar ehtiyojlardagi tafovutlar asosida kelib chiqishini qayd etib o‘tgan.

Mustaqillik yillarida oila va nikoh munosabatlariga e’tibor, oila institutini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Barcha davrlarda ham davlat va jamiyat g‘amxo‘rligi oilalarning mustahkamligiga asos bo‘lgan.

Har bir shaxs oilada dunyoga keladi, oiladan ma’lum nasliy dastur olib, oila muhiti tufayli uni ro‘yobga chiqaradi. Ya’ni oila har bir inson uchun biogenetic va mikroijtimoiy omil vazifasini bajaradi.

Mamlakatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar, urmanizatsiya, shahar bilan qishloq orasidagi tafovutning kamayishi, aholi orasida migratsiyaningkuchayib borishi, ayollarning nafaqat huquqiy, balki iqtisodiy jihatdan ham mustaqil bo‘lib borayotganligi va boshqa bir qator omillar oila va oilaviy munosabatlarga, shaxsning

nikohgacha va nikoh davridagi xulqiga, uning ayrim destruktiv ta’sirlariga berilishiga sabab bo‘lmoqda.

Yuqoridagi fikrlar asosida quidagicha xulosaga kelish mumkin:

Yoshlar ongida oilaning qadriyat sifatidagi ahamiyati nisbatan pasaymoqda. Oilaviy hayot qiyinchiliklarga bardosh berish, oilani er-xotin, farzandlar, yaqin insonlar manfaati yo‘lida saqlash mas’uliyati kamaymoqda. Ayrim yoshlarda xudbinlik hissi “Oilaviy jamoaviylik”dan ustunlik qilmoqda.

Oilaviy muhit va tarbiya bolaning ruhiy olamiga, hissiyotiga va tuyg‘ulariga chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Oilada ota-onaning o‘rni, vazifasi bilan bir qatorda farzand tarbiyasi ham muhim masala hisoblanadi.

Ajralish kelin-kuyovlarning ota-onalarining ruhiyatiga, salomatligiga, qudalar orasidagi munosabatiga, qarindoshlar va jamoa orasidagi obro‘si va oila budjetiga salbiy ta’sir qiladi.

Oiladagi muhit oilada ota-ona o‘z ma’suliyatlarini his qilishi bilan barqaror bo‘ladi.

Oiladagi qo‘pol munosabatlar, ko‘p yolg‘on gapirish, yoqimsiz xatti-xarakat bola tarbiyasiga salbiy ta’sir qiladigan nosog‘lom muhitni keltirib chiqaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Akromova F. A. Oilada muammolarni tashkil etish psixologiyasi. – T.: Shams ASA, 2006.
2. Fayzieva M. X. Oila barqarorligiga shaxslararo munosabatlar ta’sirining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, dissertatsiya ishi.
3. Ro‘ziqulov F. R., O‘zbek oilalarida ajralishning ijtimoiy-psixologik asoratlari. Dissertatsiya. 2002.
4. Shoumarov G‘. B., Haydarov I. O. Oila psixologiyasi. – T.: 2007.
5. Shoumarov G‘. B., Sog‘inov N. A. Yosh o‘zbek oilalarida yuzaga keladigan er-xotin nizolarining etnik xususiyatlari. O‘zbek oilasining etno-psixologik muammolari. – T., 1993.
6. Shoumarov G‘. B. Muxabbat va oilaviy hayot. – T., 1990.
7. Sog‘inov N. A. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning asosiy omillaridan biridir. – T., 1996.
8. Umarov B., Xolnazarova M. Oilaviy psixologik xizmat. Nazariya va amaliyot. – T: 2020.
9. Xolnazarova M. X., Xamrakulova K.X. Monografiya. GulDU, 2023.
10. Эйдемиллер Э. Г., Юстетский В. В. Семейная психотерапияб 1989.
11. http://kutubxona.uz-Elektron kutubxona.
12. http://wcu.uz - O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi.